

**ANALYSIS OF REVENUES AND EXPENDITURES OF THE STATE BUDGET OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN FOR 2023-2024****O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINING 2023–2024
YILLARDAGI DAROMADLARI VA XARAJATLARI TAHLILI**

Chuliyev Daler Kamoliddin o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyot va servis institute, Iqtisodiyot yo‘nalishi, 1-bosqich talabasi

Y. P. Urunbayeva

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

O‘qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18830537>**Annotatsiya**

Mazkur maqolada 2023–2024 yillardagi O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari, ularning tarkibi va makroiqtisodiy ta‘siri kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot fiskal siyosatning iqtisodiy o‘shish, inflyatsiya, investitsion faollik va byudjet defitsitiga ta‘sirini baholashga qaratilgan. Maqolada statistik, strukturaviy va taqqoslama metodlardan foydalanilgan bo‘lib, daromad va xarajatlar tarkibi, xarajatlarning ijtimoiy va iqtisodiy yo‘nalishlari hamda defitsit manbalari o‘rganilgan. Natijalar davlat byudjeti siyosatini takomillashtirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va ijtimoiy yo‘nalishlarni samarali moliyalashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar

davlat byudjeti, fiskal siyosat, byudjet daromadlari, byudjet xarajatlari, defitsit, ijtimoiy xarajatlar, makroiqtisodiy barqarorlik, investitsiyalar.

Kirish

Davlat byudjeti — har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim moliyaviy instrumenti bo‘lib, u orqali davlat iqtisodiy jarayonlarga ta‘sir ko‘rsatadi, ijtimoiy himoya, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va infratuzilma loyihalarini moliyalashtiradi. Keynesiy yondashuvga ko‘ra, davlat xarajatlari agregat talabni rag‘batlantiradi, iqtisodiy o‘shishga turtki beradi. Monetaristik nazariya esa byudjet defitsiti va qarzning inflyatsion bosimga olib kelishini ta‘kidlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda fiskal shaffoflikni oshirish, soliq ma‘murchiligini raqamlashtirish va byudjet tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu o‘z navbatida davlat byudjeti daromadlarini ko‘paytirish va xarajatlar samaradorligini oshirish imkonini beradi.

2023–2024 yillar mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim davr hisoblanadi:

- YAIM o‘shishi barqaror bo‘ldi,
- Investitsion faollik oshdi,
- Ijtimoiy xarajatlar kengaydi,
- Byudjet defitsiti boshqarildi.

Shu sababli, ushbu davr byudjet ko‘rsatkichlarini chuqur tahlil qilish va ularni makroiqtisodiy parametrlar bilan bog‘lash ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir. Tadqiqotning maqsadi — 2023–2024 yillarda davlat byudjeti daromad va xarajatlarini tahlil qilish, ularning tarkibi, dinamikasi va makroiqtisodiy ta‘sirini ochib berishdir.

Maqolaning dolzarbligi quyidagi omillarga bog‘liq:

1. Davlat byudjeti iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy instrument hisoblanadi.
2. Fiskal siyosatning samarali yuritilishi inflyatsiya va ichki talabni tartibga soladi.
3. Ijtimoiy va investitsion xarajatlarning balanslashuvi rivojlanish strategiyasining ustuvorligini belgilaydi.
4. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish rejalari, "Raqamli O'zbekiston" strategiyasi va investitsiya siyosati bilan uzviy bog'liq.

Mavzu bo'yicha ilmiy manbalar tahlili

Davlat byudjeti va fiskal siyosat masalalari iqtisodiyotshunos olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Musgrave & Musgrave (1989) klassik ishlarida davlat xarajatlari va soliqlar orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash tamoyillari bayon qilingan. Keynes (1936) nazariyasi davlat xarajatlarning iqtisodiy o'sishga qanday turtki berishini ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlarda O'zbekiston byudjet tizimini modernizatsiya qilish, soliq tushumlarini oshirish va xarajatlar samaradorligini kuchaytirish masalalari yoritilgan. Jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari (2023–2024)
- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari
- Ochiq byudjet portali (openbudget.uz)

Xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda byudjet defitsiti, qarz va ijtimoiy xarajatlar o'rtasidagi muvozanat fiskal barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, fiskal multiplikator darajasi va byudjetning iqtisodiy o'sishga ta'siri tizimli tahlil qilinadi.

Mahalliy tadqiqotlar O'zbekistonda byudjetning ijtimoiy yo'nalishlari, investitsion dasturlarga ajratilgan mablag'lar va fiskal barqarorlik masalalarini yoritadi. Shu bilan birga, 2023–2024 yillar kesimidagi kompleks tahlil yetarli darajada o'rganilmagan, bu esa mazkur maqolaning dolzarbligini oshiradi.

Davlat byudjeti 2023 yil tahlili

1. Daromadlar

2023 yilda byudjet daromadlarining asosiy qismi soliq tushumlaridan iborat bo'ldi:

Ko'rsatkichlar		2023 yilik
I. Daromadlar		231 721,3
1.	Bevosita soliqlar	73 103,6
1.1	Foyda solig'i	40 778,9
1.2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	29 917,4
1.3	Aylanmadan olinadigan soliq	2 407,3
2.	Bilvosita soliqlar	83 325,8
2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	57 885,3
2.2	Aksiz solig'i	15 834,4
2.3	Bojxona boji	9 606,1
3.	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	28 079,5
3.1	Mol-mulk solig'i	5097,7
3.2	Yer solig'i	6 890,1
3.3	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	15 300,3
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	791,4
4	Boshqa daromadlar	47 212,5

Daromadlarning oshishi quyidagi omillar bilan bog'liq: soliq ma'murchiligini raqamlashtirish, elektron hisob-faktura tizimi, yashirin iqtisodiyot ulushining kamayishi.

2. Xarajatlar

Xarajatlarning asosiy yo'nalishlari:

Ko'rsatkichlar		2023 yil yillik
II. XARAJATLAR (MAQSADLI JAMG'ARMALARSIZ) - JAMI		281 097,4
1.	Ijtimoiy xarajatlar	137 246,8
1.1	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	122 348,7
1.1.1	ta'lim	61 220,3
a.	maktabgacha ta'lim	11 723,0
b.	umumiy ta'lim	39 682,6
b.	kadrlar tayyorlash	9 814,7
1.1.2	sog'liqni saqlash	31 066,6
1.1.3	madaniyat va sport	5 330,2
1.1.4	fan	1 774,1
1.1.5	nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari	19 209,7
1.1.6	aholi bandligi darajasini oshirish	1 709,2
1.2.	Pensiya jamg'armasiga transfertlar	13 797,5
1.3.	Uy-joylar qurish dasturida qatnashayotgan banklar uchun kredit liniyalari, subsidiya va kompensatsiya to'lovlari	1 100,7
2.	Iqtisodiyot xarajatlari	42 926,9
2.1	suv xo'jaligi ekspluatatsiyasi xarajatlari	8 672,4
2.2	sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	447,0
2.3	aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish	4 739,5
2.4	tabiatni muhofaza qilish	194,3

Xarajatlarning katta qismi ijtimoiy yo'nalishga yo'naltirilgan bo'lib, iqtisodiy barqarorlik va bandlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

3. Byudjet defitsiti

Defitsit = Xarajatlar - Daromadlar

2023 yilda defitsit YAIMga nisbatan yuqori bo'lib, kapital xarajatlarning oshishi bilan izohlanadi. Defitsitni moliyalashtirish uchun qisqa muddatli davlat qarzlari va ichki resurslardan foydalanilgan.

Davlat byudjeti 2024 yil tahlili

1. Daromadlar

Ko'rsatkichlar		2024 yil yillik
I. Daromadlar		274 423
1.	Bevosita soliqlar	90 833
1.1	Foyda solig'i	52 620
1.2	Aylanmadan olinadigan soliq	2 829

1.3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	35 384
2.	Bilvosita soliqlar	88 341
2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	59 280
2.2	Aksiz solig'i	19 060
2.3	Bojxona boji	10 001
3.	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	36 363
3.1	Mol-mulk solig'i	6 805
3.2	Yer solig'i	8 216
3.3	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	20 170
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 173
4	Boshqa daromadlar	58 886

2024 yilda daromadlar o'sish sur'atini saqladi. Buning asosiy sabablari: soliq bazasining kengayishi, import hajmining oshishi va xizmatlar sohasi ulushining ko'payishi.

2. Xarajatlar

3. Xarajatlarning tarkibi:

No	Ko'rsatkichlar	Yillik
1	Ijtimoiy xarajatlar	152 347,6
1.1	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	134 666,6
1.2	Pensiya jamg'armasiga transfertlar	16 270,6
1.3	Aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturlarini moliyalashtirish uchun xarajatlar	1 410,4
2	Iqtisodiyot xarajatlari	38 417,0
3	Markazlashgan investitsiya loyihalari va hududlar infratuzilmalarini rivojlantirish xarajatlari	28 482,2
4	Davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura organlarini saqlash xarajatlari	16 306,3
5	Sud organlarini saqlash xarajatlari	1 622,9
6	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar byudjetlarining zaxira jamg'armalari	2 170,1
7	Davlat tomonidan NNT va fuqarolik jamiyatning boshqa inistitutlarini qo'llab-qo'vvatlash xarajatlari va o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	1 323,3
8	Davlat qarzlariga xizmat ko'rsatish va qoplash xarajatlari	14 537,4
9	Boshqa xarajatlar	55 719,3
10	Jami	310 926,2

3. Fiskal barqarorlik

2024 yilda defitsit nazorat ostiga olindi. Qarzni boshqarish strategiyasi, xarajatlarni optimallashtirish va soliq tushumlarini oshirish choralari e'tibor qaratildi.

Takliflar

- Soliq bazasini kengaytirish va yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish.

- Xarajatlarni natijadorlikka asoslangan byudjetlashtirish tizimi bilan boshqarish.
- Defitsitni YAIMga nisbatan maqbul darajada ushlab turish.
- Raqamli byudjet monitoring tizimini takomillashtirish.

Xulosa

2023–2024 yillarda O‘zbekiston davlat byudjeti iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga, investitsion faollikni rag‘batlantirishga va hududiy infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirildi. Ijtimoiy xarajatlar ustuvorlik kasb etdi, xususan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va bandlikni ta‘minlash sohalariga ajratilgan mablag‘lar aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qildi. Soliq tushumlarining barqaror o‘shishi va byudjet daromadlarining diversifikatsiyasi fiskal siyosatni yanada mustahkamladi, xarajatlar samaradorligi esa natijadorlikka asoslangan byudjetlashtirish tizimi orqali oshirildi.

Kelgusida byudjet barqarorligini ta‘minlash, ijtimoiy yo‘nalishlarni kengaytirish va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish maqsadida strukturaviy islohotlar davom ettirilishi, soliq tushumlarini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va raqamli monitoring tizimini yanada takomillashtirish zarur. Shu orqali davlat byudjeti siyosati nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlaydi, balki aholi turmush darajasini oshirish va milliy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda muhim instrument sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti <https://www.imv.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat Partali <https://gov.uz/>
3. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi <https://lex.uz/docs/-2304138>
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.08.2020 yildagi 506-son
5. Makroiqtisodiyot-2.O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019.
6. Урунбаева, Ю. (2021). Роль малого бизнеса в повышении уровня жизни. in Library, 21(1), 19-22.
7. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy ma‘lumotlari (2023–2024).
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi hisobotlari (2023–2024).
9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonuni, 2023–2024.